

**O'ZBEKISTONDA YOSHLAR ORASIDA STOMATOLOGIK
MUAMMOLARNING EPIDEMIOLOGIYASI (KARIES VA PARADONT
KASALIKLARI MISOLIDA)**

Qodirova.G.H

*Toshkent davlat tibbiyot
universiteti 4-bosqich talabasi*

Mansurov M.M

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Yuz-jag'
jarrohlig iva stomatologiya kafedrası assistenti*

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda butun dunyoda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham yoshlar orasida stomatologik muammolar, ayniqsa tish kariesi va parodont kasalliklari keng tarqalgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, maktab yoshidagi bolalarning 60–90 % ida kamida bitta karies o'chog'i aniqlanadi. O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlarda esa 12 yoshli bolalarda karies tarqalishi 65–70 % ni tashkil etishi, ayrim viloyatlarda esa bu ko'rsatkich 80–90 % gacha yetishi aniqlangan. Erta yoshdagi bolalarda (3–6 yosh) esa karies 90 % dan ortiq hollarda uchraydi. Parodontal kasalliklar yuvinil davrida sog'liq uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Bu kasalliklarning dastlabki belgilari — milkning yallig'lanishi, shishishi, qonashga moyilligi hamda patalogik cho'ntaklarning paydo bo'lishidir. Ushbu o'zgarishlar vaqtida aniqlanib, davolanmasa, asta-sekin to'qimalarning chuqur zararlanishiga, alveolyar suyakka zarar yetishiga va oxir-oqibat tishlarning muddatidan oldin yo'qotilishiga olib keladi. Og'iz bo'shlig'i muammolar nafaqat sog'liq, balki ijtimoiy iqtisdiy sohalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular bolalarning o'qishdagi faoliyatini pasaytradi, og'riq va noqulaylik tufayli hayot sifatini yomonlashtiradi. Shu sababli yoshlar orasida og'iz bo'shlig'i kasalliklarning epidemiologiyasini chuqur o'rganish, ularning xavf omillarini va oqibatlarini tahlil qilish hamda samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish bugungi kunda og'iz bo'shlig'ining eng dolzarb masalalaridam biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi:

O'zbekistonda yoshlar orasida og'iz bo'shlig'i muammolar, xususan tish kariesi va parodont kasalliklarining tarqalishini epidemiologik jihatdan o'rganish, ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy xavf omillarini aniqlash hamda profilaktika choralarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan ma'lumotlar taqdim etishdir.

Shuningdek, tadqiqot orqali:

- turli yosh guruhlari orasida stomatologik kasalliklarning uchrash chastotasini solishtirish;

- og'iz bo'shlig'i gigenasi, zararli odatlar, ovqatlanish ratsioni va ijtimoiy omillarning ta'sirini baholash;

- karies va parodont kasalliklarining erta diagnostikasi va samarali oldini olish choralarini ishlab chiqish uchun amaliy tavsiyalar berish ko'zda tutiladi.

Tadqiqot materillari.

Tadqiqot materiali sifatida Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi yoshlar jalb etildi. Tadqiqotga turli xil og'iz bo'shlig'i kasalliklari bo'lgan jami 70 nafar respondent kiritildi, shundan 40 nafari o'g'il bolalar, 30 nafari qizlar edi.

Tadqiqot ishtirokchilarining yoshi 14-18 yosh oralig'idagi maktab o'quvchilari olindi.

Og'iz bo'shlig'ining umumiy gigiyenik holatini baholash va stomatologik kasalliklarning tarqalishini aniqlash maqsadida quyidagi indekslardan foydalanildi:

- DMFT indeksi – tish kariesi va uning oqibatlarini baholash uchun;
- KPU (Community Periodontal Index) – parodont to'qimalarining holatini o'rganish uchun;

- PMA indeksi – milk yallig'lanish darajasini aniqlash uchun;

- OHI-S (Simplified Oral Hygiene Index) – og'iz gigiyenasini baholash uchun.

Bundan tashqari, ishtirokchilar orasida anketali so'rovnoma o'tkazilib, tish gigiyenasiga rioya qilish darajasi, ovqatlanish odatlari va stomatologik muammolar bo'yicha sub'ektiv shikoyatlar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, yoshlar orasida stomatologik muammolarning epidemiologik holati ilmiy jihatdan baholandi.

Tadqiqot usullari:

Anketali so'rovnoma

- DMFT indeksi
- CPI indeksi (Community Periodontal Index)
- PMA indeksi
- OHI-S (Oral Hygiene Index-Simplified)
- Statistik tahlil usullari

Olingan natijalar:

Tadqiqot davomida jami 70 nafar 14–18 yoshdagi o'quvchilar tekshirildi. Shulardan 40 nafari (57,1%) o'g'il bolalar va 30 nafari (42,9%) qiz bolalar edi.

Tekshiruv natijalariga ko'ra:

- Tish kariesi belgilariga ega bo'lganlar umumiy ishtirokchilarning 52 nafari (74,3%) ni tashkil etdi.

- O'g'il bolalarda — 29 nafar (72,5%),
- Qiz bolalarda — 23 nafar (76,7%).

- Parodontal kasalliklarning dastlabki belgilaridan (milk yallig'lanishi, qonash, shish) biri kuzatilganlar soni 41 nafar (58,6%) bo'ldi.
- O'g'il bolalarda — 22 nafar (55,0%),
- Qiz bolalarda — 19 nafar (63,3%).
- Sog'lom tish-parodontal to'qimalar holatiga ega bo'lganlar esa atigi 14 nafar (20,0%) ni tashkil etdi.

Shuningdek, gigiyenik odatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tekshirilgan o'quvchilarning 40 nafari (57,1%) tishlarini kuniga ikki marta tozalashini bildirgan bo'lsa, qolgan 30 nafari (42,9%) faqat kuniga bir marta yoki vaqti-vaqti bilan gigiyena qoidalariga rioya qilishlarini ta'kidladi.

Xulosa:

1. O'zbekiston yoshlarida og'iz bo'shlig'i muammolar, xususan tish kariesi va parodont kasalliklari yuqori darajada uchraydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning qariyb 80 foizida karies belgilari aniqlangan.
2. DMFT indeksining o'rtacha ko'rsatkichi yuqori bo'lib, bu yoshlar orasida kariesning tarqalishi va uning oqibatlarini keng tarqalganligini ko'rsatadi.
3. KPU va PMA indeksleri natijalariga ko'ra, parodont to'qimalarining kasalliklari 14-18 yosh oralig'idagi ishtirokchilarda keng uchrab, boshlang'ich gingivit va parodontit shakllari ustunlik qilmoqda.
4. OHI-S indeksi asosida baholash natijalariga ko'ra, og'iz gigiyenasiga yetarlicha rioya qilinmayotgani aniqlandi. Respondentlarning katta qismi tishlarini muntazam to'g'ri parvarish qilmasligi kasalliklarning rivojlanishida muhim xavf omili bo'lib xizmat qilmoqda.
5. Anketali so'rovnoma natijalari ham yoshlar orasida stomatologik muammolarga befarqlik mavjudligini, gigiyena va profilaktika choralariga e'tibor sustligini ko'rsatdi.
6. Olingan natijalar asosida, yoshlar orasida stomatologik kasalliklarning oldini olish uchun muntazam profilaktik tadbirlarni tashkil etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va og'iz gigiyenasi madaniyatini oshirish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Petersen & Baez, WHO 2013 – bu kitobda og'iz sog'lig'ini o'rganish metodlari (DMFT, CPI, PMA va boshqalar) aniq tushuntirilgan.
2. Kassebaum et al., JDR 2015 – dunyo bo'yicha kariesning tarqalishi haqida global statistik tahlillar bor.
3. Marcenes et al., JDR 2013 – 1990–2010 yillar oralig'ida og'iz kasalliklarining global yuklamasi haqida.
4. Qin et al., Heliyon 2022 – 1990–2019 yillarda davolanmagan karies bo'yicha global epidemiologik o'zgarishlar.
5. BMC Oral Health 2025 maqolasi – 1990–2021 yillardagi karies epidemiologiyasi haqida yangilangan natijalar.